BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

ALIMOVA SHAXNOZA SHUKUROVNA

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA STRIMING TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RUS TILINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK 378.091.3:811.161.1:004

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора педагогических наук (DSc)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Pedagogy (DSc)

Alimova Shaxnoza Shukurovna
Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida striming texnologiyalari asosida rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish..... 3

Алимова Шахноза Шукуровна
Совершенствование методики обучения русскому языку основе стриминговых технологий в педагогических вузах…… 31

Alimova Shaxnoza Shukurovna
Improving the Methodology of Teaching Russian Based on Streaming Technologies in Pedagogical Universities…… 65

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……. 70

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

ALIMOVA SHAXNOZA SHUKUROVNA

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA STRIMING TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RUS TILINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/Ped735 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna** pedagogika fanlari doktori, professor.
Rasmiy opponentlar:	**Xasanova Kibriyo Xasanovna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Asilova Gulshan Asadovna pedagogika fanlari doktori, professor
	Kurbanova Gulnoz Negmatovna pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Қattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11–uy. (Tel.: (0 365) 221–29–14; faks: (0 365) 221–57–27; e–mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 2- uy. Tel:(99865) 226 -10-96;.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

D.I.Xodjayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

O.O.Bobokalonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

G.P.Nazarova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (fan doktori [DSc] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim hamjamiyatida strategik harakatlarning rivojlanishi xalqaro ilmiy-akademik hamkorlikning kengayishi hamda zamonaviy mehnat bozorida chet tillarini, xususan, rus tilini bilishga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi til o‘qitish tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. YUNESKOning “Oliy ta’limni isloh qilish va rivojlantirish”[1] dasturiy hujjatida qayd etilgan vazifalarda bo‘lajak mutaxassislarni malaka talablari asosida tayyorlash, ularning o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil fikrlash va erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini raqamli va innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida shakllantirish ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida zamonaviy ta’lim paradigmasi talabalarda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki striming platformalaridan samarali foydalanish, onlayn darslarni loyihalash, raqamli pedagogik kontent yaratish hamda masofaviy ta’lim jarayonini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishni ham talab etmoqda. Rivojlangan davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot Markazlarida, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy Xalq Respublikasidagi OTMlarda ta’limni raqamlashtirish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, masofaviy va gibrid ta’lim sharoitida samarali metodik mexanizmlarni ishlab chiqish bo‘yicha samarali amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan, pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida striming texnologiyalari asosida tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan alohida dolzarblik kasb etmoqda. Striming texnologiyalari (jonli efir, retranslyatsiya, podkast, onlayn interaktiv platformalar) ta’lim jarayonining uzluksizligi, ochiqligi va interaktivligini ta’minlash bilan birga, talabalar nutqiy, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar ta’lim tizimini raqamlashtirish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda masofaviy va aralash ta’lim shakllarini keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda hamda “yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash[2]”, til o‘zlashtirish faoliyatini tashkil qilish metodikasini rivojlantirishga e'tibor berilib, sun'iy intellekt, innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llash bo‘yicha tizimli tadbirlar amalga oshirilmoqda hisoblanadi. Ayniqsa, rus tilini atida o‘qitishda real kommunikativ muhitni modellashtirish, autentik materiallardan foydalanish, tezkor qayta aloqa hamda individual ta’lim trayektoriyasini ta’minlash imkoniyatlari

[1] Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 May, 2015, Incheon, Republic of Korea). 6 p. 26 p.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063

kengaymoqda. Shu bois, pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida striming texnologiyalari asosida rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot zamonaviy pedagogika va lingvodidaktika fanlari rivojida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, Respublika Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Chet tillarni o‘qitish sifatini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalarni muayyan darajada amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar tahlili. Rus tilini o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar, nufuzli ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan: Tokio pedagogika universiteti (Yaponiya), Maksim Tanka nomidagi Belarus davlat pedagogika universiteti, Rossiya Federatsiyasi MDPU Boshqaruv kadrlarni tayyorlash ilmiy markazlari, A.S. Pushkin nomidagi Sankt-Peterburg pedagogika instituti, Qozon (Privoljsk) federal universiteti, akademik Ye. Buketov nomidagi Karaganda tadqiqot universitetida o‘quv jarayoniga rus tilini tezkor o‘rganish zamonaviy texnologiyalari va vositalarini joriy etishga murojaat qilib, olib borilmoqda. Ta’lim jarayonini innovatsion tashkil qilishda tillarga o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga tegishli bo‘lgan masalalar ilg‘or jahon ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, shu bilan birga, Italiyadagi Boloniya universiteti Layf-kouching instituti, Gumbold universiteti huzuridagi Ta’lim institutida o‘rganilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonda innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta’lim jarayonini raqamlashtirish, multimediani joriy etish masalalari N.N.Azizxodjayeva, U.Sh.Begimqulov, P.X.Jo‘raev, J.G.Yo‘ldoshev, F.A.Abdullayev, Z.K.Ismoilova, A.P.Xodjabayeva

ilmiy izlanishlarida ishlab chiqilgan. Hozirgi zamon talablari nuqtayi nazaridan kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish C.M.Saidjalolova, E.E.Azmiyeva, A.X.Raxmonova, F.R.Jumayeva va b.larning tadqiqotlarida o‘rganilgan.

MDH mamlakatlari olimlari T.M.Balyxina, A.A.Verbitskiy, A.A.Leontyev, A.N.Shukina, E.I.Passov, A.A.Mirolyubov, V.G. Kostomarov, O.D. Mitrofanova, O.Ya.Goyxman, L.A.Verbitskaya, I.I.Xaleev, N.I. Gez va boshqalar tomonidan rus tilini o‘qitishda kompetensiyaviy komponentlarning o‘zaro ta’siri muammolari, shuningdek rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish va nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Xorijiy olimlar E.Xaugen, Ch.Ocgud, DjMiller, G.Halasz, M.Barrik, M.Warschauer, J.Abbit, J.Ophus, M.Barahona, B.Dodge, G.Dudeney, N.Hockly, J.A.Farreny, T.March o‘z ishlarida OTMlarda loyiha texnologiyalarini rejalashtirish va tashkil qilish nuqtai nazaridan til o‘rganish, tillarni o‘rganish tizimiga turli raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalarini yoritgan. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, pedagogika OTMlarida striming texnologiyalari asosida rus tilini chet til sifatida o‘qitish masalasi rus tilini o‘qitish metodikasini tadqiq qilish obyekti bo‘lib maxsus o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2023-2026-yillarda mo‘ljallangan “O‘quv jarayonini boshqaruvchi tizim yaratish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pedagogika oliy ta’lim muassasalarida striming texnologiyalari asosida rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish va shu sohaga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida rus tilini o‘qitish jarayonida striming texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslarini tahlil qilish va ilmiy jihatdan asoslash;

rus tilini striming texnologiyalari asosida o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari, tamoyillari hamda didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo‘lajak rus tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modelni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish;

striming texnologiyalari (jonli efir, podkast, vebinar, virtual konsultatsiya va boshqalar) asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning metodik mexanizmini ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o‘tkazish;

ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash hamda amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti pedagogika OTMlarida striming texnologiyalar asosida rus tilini o‘qitish jarayoni, unda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU, Nizomiy nomidagi TDPU va Navoiy davlat universitetlaridan 366 nafar talaba ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini pedagogika OTMlarida striming texnologiyalari vositalari orqali rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish (shakl, metod, vosita, texnologiyalar to‘plami, pedagogik shartlarni tashkil qilish) tashkil qiladi.

Tadqiqotning metodlari. Tadqiqotda ilgari surilgan gipotezaning mos o‘rganilishiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot metodlari qo‘llanilgan: tahliliy-sintetik, qiyosiy-solishtirish, analogiya, modellashtirish, tashxislash (anketa olish, test o‘tkazish, kuzatish, loyihaviy metodikalar); prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish); pedagogik eksperiment metodlari va matematik statistika (ma’lumotlarni statistik ishlab chiqish, natijalarni grafik tasvirlash va b.) metodlari.

Tadqiqotning ilmiy yangililigi quyidagilardan iborat**:**

talabalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari rus tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik faoliyatni takomillashtirish, individual va noyob qobiliyat hamda moyilliklarni o‘quv sharoitlariga moslashtirish uyg‘unligida bo‘lajak mutaxassislarda striming kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modeli ko‘rish va eshitish obrazlarini idrok etish, ko‘nikmalarni yangi o‘quv vaziyatlariga ko‘chira olish, o‘zini anglash va o‘rganilayotgan obyektni mustaqil talqin etish qobiliyatiga asoslangan nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan veb-seminarlar va veb-kvestlar orqali takomillashtirilgan;

striming texnologiyalari (jonli efir, podkast, vebinar, virtual konsultatsiya va boshqalar) asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning metodik mexanizmlari talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mustaqil topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan;

rus tilini o‘qitishning shakl va metodlari podkasting (retranslyatsiya) mexanizmlaridan samarali foydalanish, striming texnologiyalari yordamida leksik va grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitishning kognitiv, texnologik, ijtimoiy-kommunikativ va refleksiv bosqichlarini inobatga olish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilar uchun classroom va virtual consultation vositalari orqali striming texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi va o‘quv jarayoniga joriy etilib, samaradorlik darajasi aniqlangan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamli texnologiyalarni joriy etishni hisobga olgan holda filologik fanlarni o‘qitishda talabalarning til rivojlanishi darajasini oshirishga yordam beradigan «Введение в специальность» nomli darslik ishlab chiqilgan va pedagogika OTMlarida o‘qitish amaliyotiga joriy etilgan;

«Обучение русскому языку с помощью медийных технологий» hamda «Методика преподавания русского как иностранного средствами стриминговых технологий» nomli monografiyalari nashr qilingan;

eksperimental ish jarayonida nazariy asoslangan va tekshirilgan til konstruksiyalariga o‘qitish asosida talabalarning kommunikativ rivojlanishini oshirish uchun striming texnologiyalaridan foydalanish metodik tizimi ishlab chiqilgan;

eksperimental ish jarayonida nazariy asoslangan va tekshirilgan mashqlarni qo‘llash orqali «Пропедевтический русский язык» kursi mashg‘ulotlarida striming texnologiyalarni rivojlantirish metodik modeli taklif qilingan;

mustaqil topshiriqlarni metodik tashkil qilish uchun mo‘ljallangan «Striming texnologiyalari yordamida rus tilini o‘rgatish uchun elektron ta’lim resursi», «Мультимедийный электронный образовательный ресурс для обучения русскому языку в начальных классах» raqamli elektron resurslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi rasmiy manbalardan olingan yondashuv, metodika va nazariy qoidalarning qo‘llanishi, tadqiqot va eksperimental ish natijalarining samaradorligini asoslash; matematik statistika metodlari, xulosalar, takliflar, tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining asoslanganligi, validligi va ishonarliligi statistik va empirik ma’lumotlar hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o‘qitishga differensial yondashuv asosida talabalarning kommunikativ rivojlanishi darajasini oshirish uchun striming texnologiyalari asosida rus tilini o‘qitish metodik tizimining taklif etilganligi, olingan materiallar oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda qo‘llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tgan «Методика обучения русскому языку» o‘quv qo‘llanmasi va «Введение в специальность» nomli darslikda o‘z aksini topgan talabalarning til rivojlanishi darajasini oshirish, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishga yo‘naltirilgan talabalar va o‘qituvchilar uchun striming texnologiyalar asosida rus tilini o‘qitish bo‘yicha takliflar va amaliy tavsiyalarni qo‘llash imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida striming texnologiyalari asosida rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar natijasida:

talabalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari rus tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik faoliyatni takomillashtirish, individual va noyob qobiliyat hamda moyilliklarni o‘quv sharoitlariga moslashtirish uyg‘unligida bo‘lajak mutaxassislarda striming kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlariga oid ilmiy xulosalardan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti kengash qarori bilan 2024/1 U-168-son guvohnomasi asosida «Введение в специальность» nomli pedagogika OTMlari uchun tayyorlangan darslik yaratishda foydalanilgan. Natijada, rus tilini o‘qitishning innovatsion tamoyillari

bo‘lajak mutaxassislarda striming kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modeli ko‘rish va eshitish obrazlarini idrok etish, ko‘nikmalarni yangi o‘quv vaziyatlariga ko‘chira olish, o‘zini anglash va o‘rganilayotgan obyektni mustaqil talqin etish qobiliyatiga asoslangan nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan veb-seminarlar va veb-kvestlar orqali takomillashtirishga oid ilmiy xulosalardan Adliya vazirligining 2025-yil 23 aprelda berilgan DGU 49903-raqamli guvohnoma asosida “Striming texnologiyalari yordamida rus tilini o‘rgatish” nomli elektron darslik yaratishda foydalanilgan (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2025-yil 4-iyundagi №02/01-01-203-son ma’lumotnomasi). Natijada, veb-kvest, veb-seminarlar vositalari orqali rus tilini o‘qitishda talabalarning grammatik va leksik kompetensiyalarini rivojlantirish darajasi takomillashtirishga xizmat qilgan;

striming texnologiyalari (jonli efir, podkast, vebinar, virtual konsultatsiya va boshqalar) asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning metodik mexanizmlari talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mustaqil topshiriqlar tizimi ishlab chiqishga oid takliflardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erasmus + 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the interdisiplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities” (CLASS: “Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo‘yicha magistratura dasturini ishlab chiqish”) mavzuidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yilning 24-apreldagi №1203/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, tavsiya etilgan model talabalarda ko‘rish va eshitish obrazlarini idrok etish, ko‘nikmalarni yangi o‘quv vaziyatlariga ko‘chira olish, o‘zini anglash darajasi hamda o‘rganilayotgan obyektni mustaqil talqin etish qobiliyatiga ta’sir etib, ularning nutqiy kompetensiyalarni veb-seminarlar hamda veb-kvestlar vositasida rivojlantirishga xizmat qilgan;

rus tilini o‘qitishning shakl va metodlari podkasting (retranslyatsiya) mexanizmlaridan samarali foydalanish, striming texnologiyalari yordamida leksik va grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitishning kognitiv, texnologik, ijtimoiy-kommunikativ va refleksiv bosqichlarini inobatga olish asosida takomillashtirilganligiga oid xulosa va natijalardan T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali 2020-2023 yillar oraligida bajarilgan FZ-2020-0908165532 raqamli Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzuidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi O‘zbekiston pedagogika ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2025-yilning 26-apreldagi №373-son ma’lumotnomasi). Natijada, tillarni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan elektron resurslar kommunikativ kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini oshirish,

kompleks va differensial ta’lim metodlarini qo‘llash, o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi qayta aloqa (feedback)ni ta’minlash hamda pedagogik oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini modifikatsiya qilishga xizmat qiluvchi muhitni shakllantirishga xizmat qilgan.

Rus tilini o‘qitishda striming texnologiyalaridan, jumladan, podkasting (translyatsiya) mexanizmlaridan samarali foydalanish asosida talabalarning leksik va grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim shakllari va metodlarini tizimlashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar pedagogika oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan «Введение в специальность» darsligi mazmuniga (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2023-yil 23-dekabrdagi 5/31-sonli qarori, 2024/1 U-168-sonli guvohnoma asosida) joriy etildi. Natijada rus tilini o‘qitish jarayonining kognitiv (bilish), texnologik, ijtimoiy-kommunikativ va refleksiv bosqichlari takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 6 ta respublika va 4 ta xorijiy ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1ta uslubiy qo‘llanma, 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 22 ta maqola, 16 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 220 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“Kirish” qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va metodlari, O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlariga mosligi aniqlangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ularning nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining joriy etilishi, chop etilgan ishlarda ularning aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida rus tilini o‘qitishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida an’anaviy va alternativ ta’lim yondashuvlari sintezida rus tili o‘qitish masalalari, o‘qitishda striming texnologiyalari muhim xususiyatlarining metodik jihatlari, rus tili grammatikasini o‘rganishda turli metodlarning yutuqlari va cheklovlari va ularning o‘ziga xosligi ochib beriladi.

Hozirgi zamon mehnat bozori talablariga ko‘ra yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, sifatli ta’lim xizmatlarining ko‘rsatilishini takomillashtirish bo‘yicha strategik harakatlarni rivojlantirish tizimliligi o‘qitish amaliyotiga ilmiy va innovatsion yutuqlarni joriy etish samarali mexanizmlarini rivojlantirishga asos yaratadi va shu bilan tillarni o‘rganish imkoniyatlarini oshiradi.

“Til sohasidagi davlat siyosati til egalarining soni va tarqalishi xususiyatidan qat’iy nazar barcha tillarning teng huquqligi tamoyillariga tayanadi. O‘zbekistonda amaldagi tillarning maqomi va qonuniy asoslari oldindan “Davlat tili haqida”gi Qonun bilan belgilangan”[1]. Bu bo‘lajak mutaxassislarga ijodiy fikrlash, didaktik faoliyatni kreativ rejalashtirish va boshqarish va mustaqil maqsadga erishish alternativ yo‘llarini rejalashtirish hamda gumanitar yo‘nalishi universitetlarida o‘qitish usullarini qura olish qobiliyatiga ega bo‘lgan pedagogik kadrlarni tayyoralshga murojaat qilish bilan turli xil ta’lim va tarbiya vazifalarini hal etish metod va vositalariga keng imkoniyat yaratadi. Biroq, yutuqlarga qaramay, ta’lim sohasida pedagogika OTM larida rus tili o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirishda bir qator masalalar mavjud. Ma’lumki, mamlakat pedagogika OTMlarida “Родной язык и литература (русский язык и литература)” bakalavriat va magistratura ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi.

Pedagogika OTMlarida rus tilini o‘qitish o‘ziga xos xususiyatlarga ega, chunki til darslarida rus tili va adabiyoti o‘qituvchisi talabalarni pedagogik faoliyatini tashkil qilish, rejalashtirish, o‘quv materiallarini modellashtirish, tahsil oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish vositasi sifatida zamonaviy vositalarni tanlash maqsad va vazifalari bilan tanishtiradi.

Shu bilan bir qatorda pedagogika OTMlarida talabalariга rus tili o‘qitishning o‘ziga xos muammolari mavjud, aynan: rus grammatikasini o‘rganishda o‘zga fonlarda uchraydigan umumiy qiyinchiliklar (lingvistik, ekstralingvistik, metodik); rus grammatikasi qoidalarini o‘zlashtirishga nisbatan ona tilining tipologik xususiyatlari ta’siri; rus tili grammatikasiga o‘qitishda ko‘chirish va interferensiya; rus tili garammatikasini o‘zlashtirishga talabalarning milliy-madaniy xususiyatlari va milliy lingvometodik an’analarning ta’siri.

Shuningdek amaliyot shu haqda dalolat beradiki, “Родной язык и литература (русский язык и литература)” (“Ona tili va adabiyoti: rus tili va adabiyoti”) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oladigan talabalar bo‘lajak kasbni egallash uchun shunchalik muhim bo‘lgan kommunikativ kompetensiyaning shakllanganligi darajasini oshirishga zaruriyat his etadi. Shunga qaramay, ushbu fanni o‘rganishda raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun pedagogik shartlarni yaratish bo‘yicha muammoning yetarli ishlab chiqilmaganligi sezilarli ravishda his qilinadi. Rus tilini o‘qitishda texnologiyalarni joriy etishning pedagogik shartlarini tizimlashtirish va takomillashtirish o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligini talab qilishi va, ba’zida, ushbu texnologiyalarning nazariy tushunilishi sifatida ko‘rib chiqilishi va bu uning keng amaliy maqsadlariga mos kelmasligiga ko‘ra ushbu hodisaning psixologik, pedagogik va metodik jihatlarini ochib berish maqsadga muvofiq. Demak, rus tilini o‘rganish uchun asosiy sabablardan biri bag‘rikenglik, o‘zaro tushunish va hamkorlik g‘oyalarini rivojlantirish, aholining harakat erkinligi, xurofot va kamsitishni yengish tendensiyalarini oshirish hisoblanadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali rus tilini o‘rganish masalasi o‘ziga xos qiyinchiliklar va muammolarga ega bo‘lgan ustuvor yo‘nalishni bildiradi. Aynan: rus tilshunosligi, rus tili va adabiyoti tarixi, rus tili o‘qitish metodikasi va ta’limni raqamlashtirish tutashuvida tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda masalaning yetarli o‘rganilmaganligi; maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida an’anaviy va noan’anaviy o‘qitish metodlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni birgalikda foydalanishga oid uslubiyotchilar, olimlar o‘rtasidagi

mavjud ziddiyatlar; kasbiy faoliyat sohasida eng yangi ilmiy yutuqlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish va tatbiq qilishda masalalarning nomuvofiqligi; ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda faqatgina ushbu faoliyat natijalarining bahosini olish uchun eksperimental tadqiqotlarning olib borilishi va boshqalar.

Pedagogika OTMlarida grammatikaga o‘qitishning asosiy bosqichi to‘g‘ri gapirish va o‘qiladigan va eshitish orqali idrok qilinadigan matnni tushunishga talabalarni o‘rgatish maqsadiga ega bo‘lgan “Пропедевтический курс русского языка” fanini o‘qitish hisoblanadi. Bu vazifa bo‘lib nafaqat rus tilining grammatik tizimi, barcha shakllari va qurilmalarining, balki grammatik to‘g‘ri nutq malaka va ko‘nikmalarining egallanishi deganidir.

Savodga o‘qitish o‘zaro bog‘langan jarayonlardan iborat bo‘lgan tovushli tahliliy-sintetik metod orqali amalga oshiriladi: ilk o‘qish va yozishga o‘qitish, asosiy darajalariga asoslangan nutqni rivojlantirish bo‘yicha mustahkamlash ishi: tovush (tovush madaniyati), so‘z (lug‘at ishi), gap, bog‘langan fikr (matn).

Nutqiy ko‘nikmalar tashqi (talaffuz, iboralarni ajratish, intonatsiya) va ichki (kelishik, rod, sonni tanlash va sh.o‘x.) tuzilishni o‘z ichiga oladi. Demak, rus tilini o‘rganish maqsadi til va o‘qitishning umumiy kabi xususiy masalalarini yoritish, umuman olganda, o‘qitish metod va usullari, uni o‘rta umumta’lim maktabi va akademik litseylarda o‘qitishning o‘ziga xosligi haqida bo‘lajak o‘qituvchilarning bilimlarini kengaytirish hisoblanadi.

Rus tilini o‘qitish metodikasida zamonaviy ta’lim yondashuvlarida to‘rtta asosiy nutq malakalari turi farqlanadi: 1) gapirish malakasi (o‘z fikrlarini og‘zaki shaklda bayon etish); 2) yozish malakasi (o‘z fikrlarini yozma shaklda bayon etish); 3) tinglash malakasi (tovushli ifodalashda nutqni tushunish); 4) o‘qish malakasi (nutqni uning grafik ifodasida tushunish). “Родной язык и литература (Русский язык и литература”) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malakaviy talablarda bo‘lajak pedagog quyidagi malakalarga ega bo‘lishi ta’kidlangan: rus tili va adabiyoti tarixi hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida turli ilmiy konsepsiyalar va maktablar haqida zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish; o‘qiladigan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini, ayniqsa, axborotni mustaqil izlash, mustaqil ta’lim, ilmiy-ijodiy faoliyatni amalga oshirishda samarali ish olib borish uchun o‘quv-metodik hujjatlarni ishlab chiqib, tatbiq qila olish; rus tili va adabiyotini o‘qitishda innovatsion, axborot-pedagogik texnologiyalardan foydalanish va b.

Ye.V.Komovskaya[1] rus tili grammatikasini chet til sifatida o‘rganishga metodik yondashuvlarning o‘ziga xosligi o‘zga fonlarga grammatik materialni taqdim qilish tamoyillariga asoslanadi deb hisoblaydi. U bilan o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan grammatik shaklni hamda o‘rganiladigan leksikaning kommunikativ ahamiyatini qayd etuvchi kommunikativ metamodel tushunchasiga asoslangan mualliflik yondashuv taklif qilingan. Maqolada hal etiladigan vazifalarga rus tilini o‘qitish jarayonida rus tili gramatikasini taqdim qilish kiradi. Muallifning fikriga qo‘shilgan holda ta’kidlash mumkinki, rus tilining chet til sifatida o‘rganilishini bir necha nuqtay nazarlar orqali[3] tavsiflash mumkin. Talaffuz qilingan so‘z har doim so‘zlovchiga, xatto so‘zlovchining o‘zi dialog a’zosi bo‘lib hisoblansada, unga

[3] Комовская Е. В. Способы представления грамматики при преподавании русского языка как иностранного // Филологические науки. – 2021. – № 26(2). – С. 45–53

qaratilgan. Rus tilining egallanishi va samarali muloqot ko‘nikmalari muvaffaqiyatga erishishda katta ahamiyatga ega.

Dissertatsiyalar mavzularining tahlili shuni ko‘rsatdiki, rus tili bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash olimlarning yanada e’tiborini jalb qilmoqda. Buni Yu.N.Karaulov, V.V.Kunurakov, S.Saidjalolova va boshqalarning ishlari tasdiqlaydi. Biroq o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha metodik, psixologik-pedagogik adabiyotlarning, aynan, oliy maktabda striming texnlogilyaari asosida rus tili o‘qitish muammosi, ayniqsa yaxlit pedagogik hodisaga nisbatan unga tizimli yondashuvning jihati butunlay o‘rganilmagan.

T.M.Balixina bilimlarni saqlash va uzatish vositasi sifatida rus tili turli o‘quv fanlari bilan chambarchas bog‘liq deb ta’kidlaydi. Bu ta’sir o‘qitish jarayoni va, oxir oqibatda, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga tarqaladi. Kitob muallifi rus tili me’yorlarining ongli egallanishi va rus tilida asl va yangi hodisalarning farqlanishi taxsil oluvchining tilda variativ shakllarning yuzaga kelishi va birga mavjud bo‘lishi manbalarini tushuna olishga qodir bo‘lganidagina bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi. Muallifning fikriga qo‘shilib, shuni ta’kidlash kerakki, agar talaba leksik birliklarning etimologik tahlilini qila olsa, ya’ni samarali so‘z yasash turining ta’siri, faqat bu holda til uchun ma’no: zamonaviy rus tilining “tizimli hodisasini bartaraf etish” va hokazo ilmiy asosda savodli nutqni qurish va til me’yorlarining buzilishi sabablarini aniqlashga imkon beradi.

So‘nggi yillarda rus tili grammatikasini o‘qitishda kommunikativ yondashuv yanada katta metodik ahamiyatga ega bo‘lmoqda. O‘zga tilli talabalarga grammatik materialni berishning metodik strategiyalari yuzaga kelmoqda. Bu grammatik materialning tuzilmaviy-semantik yondashuvi hamdir, uning asosiy vakillari bo‘lib A.V.Bondarko, S.A.Shubik, S.I.Kokorina hisoblanadi. Boshlang‘ich bosqichda bu metod taxsil oluvchilarning o‘zlashtirilishi uchun nutqiy namunalar yoki kommunikativ modellarni bildiradi. Keyingi metodik yondashuv bo‘lib Yu.M.Kalinina va Ye.S.Mixeyeva bilan taklif qilingan rus tilining kommunikativ grammatik tuzilmalarini taqdim qilishga innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ushbu olimlarning rus tili o‘qitishga bo‘lgan qarashlari asosini “fishbone” va b. innovatsion usullardan kelib chiqib, rus tilining grammatik berilishidan iborat. Shuningdek mualliflar talabalarning tayanch o‘qitish darajasida rus tilini o‘qitishning birinchi sertifikatsiya darajasida faol ishlatiladigan “mind-map” yoki “intellekt-karta”ni taklif qiladi. Rus tiliga chet til sifatida o‘qitish turli maqsadlar, shu bilan birga retseptiv va produktiv ko‘nikmalarning rivojlanishini nazarda tutadi. Retseptiv o‘qitish tilni tushunishga qaratilgan va grammatik tuzilmalar, so‘z yasalishi, gap va matnlar hamda so‘zlar ma’nosini aniqlash uchun lug‘atlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Produktiv o‘qitish esa, o‘z navbatida, o‘z fikrlarini chet tilda ifodalash malakasiga yo‘naltirilgan va o‘rganilgan materialni og‘zaki va yozma nutqda faol tatbiq etishni talab qiladi.

Ta’lim tizmida zamonaviy pedagogik va raqamli, shu bilan birga striming texnologiyalari konseptual asoslari bo‘lib pedagogik va innovatsion texnologiyalarning mohiyatini ochib beradigan o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha davlat rahbari farmonlari, qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda manbalar hisoblanadi. Shunga ko‘ra mazkur faoliyat sohasiga tegishli bo‘lgan me’yoriy hujjatlarni tahlil qildik. Shunday qilib, Prezidentning 2018 yil 19 fevral “Axborot texnologiyalari va aloqa sohasini yanada

takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni ilg‘or o‘qitish metodlarini joriy etish orqali yetuk mutaxassislarni tayyorlashning jadal davrida qabul qilingan o‘ta muhim hujjat hisoblanadi. “Raqamli ta’limga o‘tish yangi texnologik asosga ega bo‘ladi va innovatsion texnologiya rivojlanishning muhim vositalaridan biriga aylanadi...” [2] deb yozadi V.A. Chernov.

Striming - (ingl.: «stream» - «oqim») – foydalanuvchi tomonidan video ketma-ketlik yoki audio ketma-ketlikda olingan axborot. Bu atama shuningdek videoxostingda to‘g‘ridan to‘g‘ri namoyish qilish konsepsiyasi sifatida internet foydalanuvchilari bilan foydalaniladi.

Striming – masofaviy o‘qitishda Internet tarmog‘ida zamonaviy telekommunikatsiya servislaridan foydalangan holda personal raqamli qurilma va veb-kamera orqali audio-raqamli axborotni tayyorlash, namoyish qilish va saqlash metodlari to‘plami.

Tadqiqot kontekstida ta’limda striming texnologiyalaridan foydalanishda xorijiy pedagogik tajribaning tahlili shuni ko‘rsatdiki, xorijiy tadqiqotchilar Internet ma’lumotlari oqimida ta’lim jarayonida mediadan foydalanish va ularning o‘qitish nazariyasi va amaliyotiga ta’sirini o‘rgangan. Xususan, ularning tadqiqoti mustaqil OAVni yaratishga mavjud ta’lim kontenti va yondashuvlardan foydalanishni ko‘rsatadi. Stiriming texnologiyalari asosida talabalarning ta’lim faoliyati rus tilida bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarning egallanishiga (masalan, Ziyonet, GOOGL dan olingan axborot) yordam beradi va yuqori malakali kadrlar tayyor, tashkiliy tadbirlarning yig‘indisini bildiradi (2-rasm). Muvofiq, pedagog aniqlanagn innnovatsion striming g‘oyalarni o‘quv jarayoniga maqsadli kiritilishini ta’minlashi kerak.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi asosida striming texnologiyasi Internetdan olingan axborotni yozib olish, saqlash, tahrirlash va qayta namoyish qilishga imkon beradi. Oqimiy texnologiyalar asosida talabalarda fan kompetensyailarini rivojlantirish quyidagilarda aks etadi: turli axborot va kommunikatsiya, darsliklar, ishlanmalar asosida o‘qitish texnologiyalari va uslubiy qo‘llanmalardan foydalanish, chet tillarda innovatsion pedagogik texnologiyalarni yozib olish, tahlil qilish, yaratish va h.

Oliy ta’lim muassasalarida axborot xizmatlaridan foydalanish jihatlari tahlili, ta’lim jarayonining zamonaviy didaktik shakllarini tashkil qilish, ularning mazmuni va mohiyati Rossiya Federatsiyasi olimlari S.I. Arbuzov, V. Pidkasistiy va b. ishlarida ko‘rib chiqilgan. Grammatikada an’anaviy o‘qitish metodi o‘rnini bosishi mumkin bo‘lgan metodlardan biri XX asr 69-yillarning oxirida britaniyalik tadqiqotchi Toni Byuzen bilan kiritilgan «mind-map» metodi hisoblanadi. Bu metod striming texnologiyalarni tatbiq qilgan holda har qanday til grammatikasiga qo‘llanganda ilgari olingan bilimlarni umumlashtirishga imkon beradi. Ushbu metodni “grammatik materialning ko‘rgazmali berilishi, fikr shakllari va ma’nosini tizimlashtirishning yuqori darajasi” deb hisoblash mumkin, biroq bu metod kommunikativ nutq tarqatuvchilari muammosini hal eta olmaydi, chet ellik taxsil

oluvchilarning barcha grammatik xatolarining 80% tashkil etadigan kommunikativ nutq tarqatuvchilari muammosini hal qila olmaydi»[1].

“Mind-map” metodi alohida olingan kelishik bo‘yicha o‘rganilgan materialni umumlashtirish uchun samarali, chunki barcha tuzilmalar va unga to‘g‘ri keladigan butun semantikani sanab o‘tadi, predlogli va predlogsiz shakllar, birlamchi va ikkilamchi ma’nolarni bo‘ladi. Biroq ushbu metod potensial va potensial bo‘lmagan konstitutiv tarqatuvchilar nutqida qo‘llanilish muammosini chetlab o‘tolmaydi.

“Fishbone” - har qanday muammoni sxema baliq ko‘rinishida ko‘rib chiqqan yaponiyalik olim Kofu Isikava ishlanmasi: muammo – bu bosh, dum – xulosa, skeleti yuqori qismi – sabablar, quyi qismi – dalillar. Shunday qilib, har qanday kelishikni o‘rganishda bunday yondashuv tarafdorlari yuqorida kelishik ma’nosini yozishni, quyida esa shu ma’noning nutqda umumlashgan qo‘llanilishi sxemasini berishni taklif qiladi. Bu grammatikani berish metod asosini rus tili kommunikativ metamodelini o‘rganish tashkil qiladi, metamodel deganda nominativ yoki aksional bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng kichik grammatik tuzilma tushuniladi, oxirgisi uchta asosiy tur bilan berilgan: ikki sostavli, infinitiv turdagi bir sostavli, kam ishlatiladigan. Turli metodik ko‘rsatmalarda ta’riflanganidek[2], kommunikativ taqsimlash maromi borasida turli yo‘nalishdagi ayrim metamodel qurilmalarda RTCHTS grammatikasini o‘rganishga turli yo‘nalishli metamodel yondashuvi tamoyillarini yaqqol tasavvur qilishimiz va ta’riflashimiz mumkin.

Keyingi metod umuman o‘qitishning o‘zi va xususan grammatikaga o‘qitish real hayotiy vaziyatlarga tayanish kerakligini talab qiladigan kommunikativ metod. Grammatikaga o‘qitish jarayoni “amaliyotda o‘qitish” orqali amalga oshiriladi, bunda talabalar tabiiy ravishda grammatik qoidalarni o‘zlashtirib, eslab qolishlari uchun guruh tadbirlarida ishtirok etishi yoki o‘zaro muloqotni talab qiladigan vazifalarni bajarishi kerak.

Eng samarali o‘qitish metodlariga loyihalash metodini ham kiritish mumkin. Lohilash o‘qitish metodi shu bilan o‘ziga xos, talabalar o‘zlari vazifani qo‘yadi, unga erishish yo‘llarini aniqlaydi. Orfografiya, fonetika, punktuatsiya, so‘z yasalishi, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis o‘qitish metodlari farqlanadi.

Dissertatsiyaning **“Rus tilini o‘qitishda striming texnologiyalarini tatbiq etish metodik tamoyillari va yondashuvlari”** deb atalgan ikkinchi bobi rus tilini o‘qitishda striming texnologiyalardan foydalanishda talabalarda fan kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik xusisyatlarini aks etadi. Unda birinchi kursda guruhlarda striming metod va vositalarni tatbiq etish orqali rus tili bo‘yicha mashg‘ulotlar tizimi ochib berilgan. Xorijiy va mamlakat o‘qitish metodikasida tilni egallash jarayonining psixologik xususiyatlariga tegishli bo‘lgan bir qator psixologik nazariya va konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Masalan, o‘zga tilli guruhlarda talabalarni rus tiliga o‘qitishning o‘ziga xosligi I.M. Berman, I.L. Bim, M.A. Davidova, I.A. Zimnyaya, G.A. Kitaygorodskaya, A.A. Leontyev, M.V.

[1] Komovskaya E. V. Methods of Grammar Material Presentation in Teaching Russian as a Foreign Language/ file:///C:/Users/User/Downloads/sposoby-predstavleniya-gr

Lyaxovitskiy, B.V. Belyayev kabi pedagog va psixologlarning bir qator fundamental ishlari ko‘rib chiqiladi. Biroq olingan ilmiy natijalarni o‘zga til formati uchun OTM talabalarini tayyorlash aniq modeliga tizimli birlashtirish va ularning psixologik xususiyatlarini aniqlash muammosi yetarli ishlab chiqilmagan.

Talabalarning rus tiliga o‘qitishning asosiy maqsadi grammatik konstruksiyalarning til qurilishi haqida bilimlarni egallash, eng muhim nutq ko‘nikmalari - gapirish, o‘qish, tinglash va yozish ko‘nikmalari sifatida grammatik, stilistik, morfologik ko‘nikmalarni rivojlantirish hisoblanadi. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun rus tilini o‘qitishda striming texnologiyalarini tatbiq qilishning asosiy psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish va ochib berishga qaror qildik. Bu yerda rus tilini o‘zlashtirish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadigan ona tili mashg‘ulotlarida talabalar o‘zlashtirgan malaka va ko‘nikmalarni uchta guruhga bo‘lish mumkinligini hisobga olish muhim: a) qisman to‘g‘ri keladigan, ya’ni o‘xshash (lekin bir xil bo‘lmagan) til hodisalari asosida shakllanadigan malaka va ko‘nikmalar. Bu yerga “большой”, “мальчик” kabi orfografik xatolarni yuzaga keltiradigan rus tilidagi [л] va o‘zbek tilidagi [л] tovushlarning bir-biriga o‘xshamasligini kiritish mumkin; b) to‘g‘ri kelmaydigan, ya’ni interferensiyasi ona tili va rus tili yozish qoidalarida muhim farqlar tufayli talabalarning yozma nutqida turli xatolarni yuzaga keltiradigan malaka va ko‘nikmalar; v) to‘g‘ri keladigan, ya’ni ona tilidagi yozish malaka va ko‘nikmalari. Masalan, ularga katta harfning qo‘llanilishi, satrdan satrga so‘zni ko‘chirish, bir qator so‘z va ъ, ь belgilarining yarim qo‘shib yozilishi va b.

Talabalarni faol nutqqa tayyorlash ular o‘rganilayotgan mavzuni passiv tushunishdan o‘z nutqiga o‘ta olishi uchun auditoriya va auditoriyadan tashqari tashkil qilinadi. Buning uchun hech bo‘lmaganda uchta shart zarur: kommunikatsiyaning rivojlantirilishi, eshitiladigan nutq bilan to‘yinganlik, so‘zning semantik tarafiga nisbatan motivatsiyaning yuzaga kelishi, o‘z predmet faoliyatining tiklanishi.

Rus tiliga o‘qitishning psixologik xususiyatini aniqlash uchun monografiyalar, maqolalar, manbalar tadqiqi qilingan, bu yerda birgina harakatlar tizimining imperativ bilan talaba va o‘qituvchining o‘quv faoliyatini baholash kerak bo‘ladi. Ma’lumki, faoliyat – bu muayyan maqsadga qaratilgan o‘zaro bog‘langan harakatlar algoritmi. Yana bir rus tiliga o‘qitishning psixologik xususiyati bo‘lib ta’lim jarayoni ishtirokchilarini motivatsiyalash jarayoni hisoblanadi. Talabalar Rus tili propevdik kursi mashug‘lotlarida uch usul bilan bilimlar olishi mumkin: tiklash, tadqiq qilish, yaratish. Ta’lim vositalariga fikrlash, identifikatsiya, tahlil va sintez, intellektual jarayonlar kiradi: mantiqiy va obrazli fikrlash, moddiy axborot vositalari (o‘quv uskunasi, ko‘rgazmali qurollar, anatomik modellar, manekenlar va b.), til vositalari (ona tili va rus tili).

Ctriming texnologiyalari bilan ishlashda kompetensiyalar – Internetdan axborotni yozib olish, saqlash, tahrirlash va qayta uzatish. Striming texnologiyalari asosida talabalarda fan kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini kognitiv bosqichdan iborat bo‘lgan tuzilmaviy qismlarga (tarkibiy qismlarga) bo‘lish mumkin.

Striming texnologiyalarini joriy etishda grammatik materialning berilishi asosiy o‘rganilayotgan materialni bir yerga to‘plash va asosiy kommunikativ ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda tezlik tamoyillariga javob beradi. Boshlang‘ich bosqichda tuzilmaviy-semantik yondashuvda kabi talabalar mumtoz nutq turkumlarining belgilanishi, nominativ tizimi va uning turlari, fe’l va uning zamon shakllari bilan tanishadi. Ikkinchi bosqich kommunikativ-funksional grammatikada mumtoz yondashuvdan deyarli farq qilmaydi, chunki oddiy minimal tuzilmalar, predikativ va nopredikativ xususiyatdagi chizmalar bilan berilgan.

Tillarni o‘rganishda striming o‘qitish ta’lim strategiyalarining xilma-xilligiga yordam beradigan keng ko‘lamdagi axborot texnologiyalaridan foydalaniladi.

“Zamonaviy shart-sharoitlarda ta’limni raqamli formatda turli axborotni uzatish, saqlash, taqdim qilish usullaridan foydalanmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi”[1]. Shundan kelib chiqib, muallifning raqamli texnologiyalarning usullari, vositalari va shakllari talabalarning tanqidiy fikrlashi, bilish qobiliyatlarini faol rivojlantirishi, ta’limni individuallashtirish va differensiyalashga yordam berishi haqidagi fikriga to‘liq qo‘shilamiz.

Taqdim qilinadigan intellektual axborot-tahliliy ta’minotning integrallashgan tizimi metodlari majmuasi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: 1) o‘quv dasturlariga ko‘ra o‘rganilayotgan tillarni tezkor o‘rganishning yangidan yaratiladigan tizimlarini qo‘llash asosi; 2) ta’limni raqamlashtirish muammolarini kompleks hal etishning zaruriy sharti; 3) tillarga o‘qitish sifatini oshirish uchun hisoblash algoritmlari.

